



## **XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHI QARORI**

**100120, Guliston sh., Islom Karimov k., 60-uy, tel: (67)225-33-51, 225-06-78, e-mail: [sirdaryo@exat.uz](mailto:sirdaryo@exat.uz)**

2023 - yil 7 - mart

VI-46-24-9-0-K/23

Sirdaryo viloyati hokimligi

### **Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash mezonlarini belgilash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi qonunda belgilab qo'yilgan huquqiy me'yorlar ijrosini ta'minlash saylangan har bir xalq vakilidan juda katta mas'uliyatni talab qiladi.

Shu bilan bir qatorda tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, "Yangi O'zbekiston"da sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar deputatlar faolligi zaruratini keltirib chiqarmoqda, har bir deputatning amalga oshirgan ijobiy faoliyatini rag'batlantirish va ommalashtirishga katta ehtiyoj mavjud.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Reglament va deputatlik odobi doimiy komissiyasining taklifiga binoan, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi qonunning 5-, 6-, 7-, 8-, 9-moddalariga hamda O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiysi to'g'risida"gi qonuning 6-, 24-moddalari muvofiq Xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasi

#### **Qaror qiladi:**

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash mezonlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Reglament va deputatlik odobi doimiy komissiyasi (X.Artukbayeva)ga:

**har oy yakuni** bo'yicha mazkur qaror bilan taqdiqlangan mezonlar bo'yicha deputatlar faolligi aks etgan axborotni navbatdagi sessiyalarga taqdim etib borsin;

faol deputatlar ishini ommalashtirish va yil yakuni bo'yicha rag'batlantirish yuzasidan taklif kiritish vazifasi yuklatilsin.

3. Xalq deputalari viloyat Kengashi kotibiyati (A.Abduraxmonov) Reglament va deputatlik odobi komissiyasi va barcha deputatlarga ushbu qaror ijrosini tashkil qilishda tashkiliy-texnik yordam ko'rsatsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Reglament va deputatlik odobi doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi o'rinnbosari**



**M.Xodjiev**

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyat Kengashining  
2023 yil 7 martdag'i  
VI-46-24-9-0-K/23-son qaroriga  
1-ilova

## **Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash mezonlari**

<b>Nº</b>	<b>Baholash shartlari</b>	<b>Qonuniy asos</b>	<b>Eng yuqori baho</b>	<b>Izoh</b>
1.	Xalq deputatlari viloyat Kengashi doimiy komissiya majlislarida ishtirok etish	"Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi qonunning 6-moddasi:	5 ball	Komissiya bayonnomasi-dan olinadi
2	Xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida ishtirok etish	"Deputat tegishli xalq deputatlari Kengashining majlislarida hamda ....komissiyaning majlislarida shaxsan ishtirok etishi shart."	5 ball	Sessiya bayonnomasi-dan olinadi
3	Xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasida so'zga chiqish, savol va taklif berish	Qonunning 7-moddasi: "Deputat vaqtı-vaqtı bilan, lekin yiliga kamida 4 marta saylovchilarga o'z faoliyati haqida axborot beradi	5 ball	Sessiya bayonnomasi-dan olinadi
4	Oy davomida saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish	Qonunning 7-moddasi: "Deputat tegishli hududda..... deputat so'rovi yuborishga haqlidir"	5 ball	Majlis bayoni rasmlari bilan taqdim etiladi
5	"Deputat so'rovi" berish	Qonunning 8-moddasi: "Deputat tegishli hududda..... deputat so'rovi yuborishga haqlidir"	5 ball	Javob olingan bo'lishi lozim
6.	Siyosiy partiya bilan aloqa bog'lab turishi	"Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi qonunning 7-moddasi	5 ball	Siyosiy partiya ma'lumoti asosida
7	Ommaviy axborot vositalarda, ijtimoiy tarmoqlarda chiqish	-	5 ball	Asoslangan holatda
8	O'z tashabbusi bilan amalga oshirgan turli loyihamalar, amaliy ishlari	-	10 ball	Asoslangan holatda
<b>Bir oy davomida yig'iladigan eng yuqori ball</b>			<b>45 ball</b>	-